

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA TA'SIRINI YANADA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish **konsepsiyasi** (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) va uni amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” tasdiqlandi;

ikkinchidan, madaniyat va san'at tashkilotlarining “do'stlar klublari” faoliyatini yo'lga qo'yish orqali ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha mutlaqo yangicha samarali tizim yaratildi;

uchinchidan, muzeylar renovatsiya dasturi qabul qilindi, o'zbek xalqining ko'hna va betakror san'ati namunasi bo'lgan “Xorazm lazgisi” YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga kiritildi;

to'rtinchidan, madaniy meros obyektlari va san'at ashyolarini restavratsiya qilish bo'yicha milliy maktab, shuningdek, xalq cholg'ulari, milliy raqs, maqom yo'nalishlarida respublika ko'rik-tanlovlari qayta tiklandi;

beshinchidan, mamlakatimizda muntazam ravishda o'tkaziladigan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Buyuk ipak yo'li” xalqaro folklor san'ati festivali hamda “Raqs sehri” xalqaro festivali tashkil etilib, o'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari va an'alarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, Konsepsiyani amalga oshirish, sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimi yaratilmagan.

Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, buning uchun respublikaning barcha hududlarida teatr, muzey, ko'chma sirk va hayvonot bog'lari faoliyatini doimiy ravishda yo'lga qo'yish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirish, madaniyat va san'at sohasidagi islohotlarni jadal davom ettirish, madaniyat organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasining** ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

2020 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'atni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi **1-ilovaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining 2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlar Mahkamasi Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritalari” va chora-tadbirlar dasturlarini qabul qilishda mazkur bandga muvofiq tasdiqlanayotgan maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni nazarda tutsin.

2. Belgilansinki, 2021-yil 1-yanvardan boshlab:

konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash, litsenziatlarning davlat reyestrini yuritish, ularning faoliyati va erishgan natijalari haqidagi axborotlarni kiritib borish Konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilarining yagona onlayn portali orqali amalga oshiriladi;

konsert-tomosha tadbiriga bir martalik ruxsatnoma berish uchun undiriladigan yig'im bekor qilinadi;

davlat organlari va tashkilotlarining asosiy vazifa va funksiyalaridan kelib chiqib, ularning tashabbuslari bilan o'tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari har yili tasdiqlanadigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining kalendar rejalari (keyingi o'rinlarda — kalendar rejalari) asosida o'tkaziladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kalendar rejalarda nazarda tutilmagan davlat tadbirlarini o'tkazishni nazarda tutuvchi qarorlarida ushbu tadbirlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha buyurtmachilar hamda ularni moliyalashtirish manbalari ko'rsatiladi;

konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan davlat organlari va boshqa tashkilotlarning buyurtmalariga asosan ko'rsatiladigan barcha xizmatlar yozma va haq evaziga tuziladigan shartnoma asosida taqdim etiladi, konsert-tomosha faoliyatini amalga oshiruvchi davlat muassasalari xodimlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bundan mustasno.

3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (keyingi o'rinlarda — Madaniyat vazirligi) va boshqa davlat organlari tomonidan davlat tadbirlari va boshqa tadbirlarga ijodkorlar va ijrochilarning jamoatchilik asosida jalb qilinishiga yo'l qo'yilmasligi belgilansin.

4. Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi va Xalq ta'limi vazirligi 2020/2021 o'quv yilidan boshlab notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlarni O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan chop etilishini va ularning ta'lim muassasalariga to'liq yetkazilishini ta'minlasin.

5. 2020-yil 1-sentabrdan boshlab davlat organlari va tashkilotlari tizimidagi konsert, madaniyat saroylari va boshqa muassasalarda to'liq jonli ijro asosida o'tkazilgan konsert dasturlari uchun ijara to'lovidan 50 foiz chegirma berish tartibi joriy etilsin.

6. Madaniyat va san'at sohasi vakillarining San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasini (keyingi o'rinlarda — Palata) tashkil etish to'g'risidagi tashabbuslari qo'llab-quvvatlansin.

Belgilansinki, Palata mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaradigan tashkilot hisoblanadi.

Madaniyat vazirligi Palata faoliyatining dastlabki bosqichlarida uni qo'llab-quvvatlash uchun Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1 mlrd so'm ajratilishini ta'minlasin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari B.A. Musayev, madaniyat vaziri O.A. Nazarbekov Palata hamda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaradigan boshqa tashkilotlar faoliyatini tashkil etishga har tomonlama ko'maklashsin.

7. Belgilansinki, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar ularga bevosita huquq egalari yoki ularning merosxo'rlari tomonidan berilgan vakolatlar doirasida da'vo bilan sudga murojaat qilgan taqdirda davlat bojini to'lash muddati kechiktirilib, bu boj keyinchalik aybdor tarafdin undirib olinadi.

8. Madaniyat vazirligi tomonidan xarid qilingan, ommaviy ijroga mo'ljallangan dramatik, musiqali va musiqali-dramatik asarlarni 2020-yil 1-sentabrdan boshlab xususiy teatrlarda ham sahnalashtirish va ijro etishga ruxsat berilsin.

Bunda, xususiy teatrlarda sahnalashtirilgan hamda ijro etilgan asarlar uchun mualliflik haqi to'lash Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasiga har yili O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar va ushbu jamg'armaning boshqa daromadlari doirasida amalga oshirilishi belgilansin.

9. Boy tarixi, o'zbek milliy qo'g'irchoq teatri maktabining shakllanishi va rivojidadagi beqiyos hissasini inobatga olib, Respublika qo'g'irchoq teatriga O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri nomi berilsin.

Madaniyat vazirligi va Moliya vazirligi Navoiy, Namangan, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda ushbu viloyatlarda qo'g'irchoq teatrlarini tashkil etish to'g'risidagi Hukumat qarori loyahasini Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

10. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Madaniyat vazirligi, Qurilish vazirligi:

O'zbekiston Respublikasining 2021 — 2023-yillarga mo'ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarida 2021-yilda Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Toshkent viloyatlari qo'g'irchoq teatrlari binolarini qurish, ularga ajratilgan binolarni rekonstruksiya qilish, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash ishlarini nazarda tutsin;

2020-yilga mo'ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida maqbullashtirilgan mablag'lar hisobidan "O'zbek davlat sirki" davlat muassasasining bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish, qo'shimcha ravishda hayvonlarni saqlash xonalarini qurish hamda zamonaviy uskunalar bilan jihozlash ishlarining to'liq moliyalashtirilishini, shuningdek qurilish, rekonstruksiya va jihozlash ishlarini joriy yil oxiriga qadar to'liq yakuniga yetkazib, foydalanishga topshirilishini ta'minlasin.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Madaniyat vazirligi va Moliya vazirligi bilan birgalikda 2020-2021-yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar budjetlari mablag'lari hisobidan har bir hududda ko'chma sirkar (shapito, dorbozlar guruhleri) hamda hayvonot bog'lari tashkil etilishi va doimiy faoliyat yuritishini ta'minlasin.

12. 2020-yil 1-sentabrdan boshlab shunday tartib joriy etilsinki, unga muvofiq:

ko'chma sirkar (shapito, dorbozlar guruhleri) tomonidan o'tkaziladigan tomosha tadbirlariga ommaviy tadbir o'tkazish uchun ruxsatnoma va ruxsat berish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni olish talab etilmaydi, bunda tadbir tashkilotchilari uni o'tkazish joyi va vaqti to'g'risida ichki ishlar organlarini kamida 10 kun oldin yozma ravishda xabardor qiladi;

ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi organlari ko'chma sirkar (shapito, dorbozlar guruhleri) tomonidan o'tkaziladigan tomosha tadbirlarida jamoat tartibi va yong'in xavfsizligini to'lov undirilmagan holda ta'minlaydi;

davlat organlari va tashkilotlari tizimidagi madaniyat va istirohat bog'lari, sport inshootlari, sayilgohlar va boshqa ochiq hududlarda ko'chma sirkar (shapito, dorbozlar guruhleri) tomonidan tomosha tadbirlari o'tkazish uchun ijara va boshqa turdagi to'lovlar undirilmaydi;

nomoddiy madaniy meros obyektlarini (dorboz, askiya va lapar) asrash va ulardan foydalanish faoliyati O'zini o'zi band qilgan fuqarolarga vaqtinchalik mehnat guvohnomalari beriladigan faoliyat (xizmatlar, ishlar) turlari ro'yxatiga kiradi (madaniyat markazlari tarkibida faoliyat yuritayotgan shaxslar bundan mustasno) va ularning ushbu faoliyatdan olingan daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tatbiq etilmaydi.

13. Madaniyat vazirligi tizimida:

Madaniyat vazirligi markaziy apparati tuzilmasida madaniyat muassasalari va havaskorlik san'atini rivojlantirish, sohada axborot texnologiyalarini keng joriy etish va raqamlashtirish masalalariga mas'ul vazir o'rinbosari lavozimi joriy etilsin;

O'zbekiston davlat konservatoriyasining "O'zbek maqom san'ati fakulteti" hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining tegishli ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari negizida maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta'lim muassasasi — Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etilsin;

davlat muassasasi shaklidagi Madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilsin;

Respublika ixtisoslashtirilgan estrada va sirk maktabi Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk kolleji etib qayta tashkil etilsin;

V. Uspenskiy va R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseylari maktab-internatlar uchun belgilangan imtiyozlarni tatbiq qilgan holda tegishli V. Uspenskiy va R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktablariga aylantirilsin.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Iqtidorli bolalar akademik litseyi hamda Toshkent ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi negizida Madaniyat vazirligi tizimida Respublika musiqa va san'at kolleji tashkil etilsin;

14. 2020-yil sentyabr oyidan boshlab davlat muzeylarida har oyning birinchi yakshanbasi "ochiq eshiklar kuni" deb e'lon qilinsin.

Belgilansinki, "ochiq eshiklar kuni"da fuqarolar muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish uchun davlat muzeylariga bepul kiritiladi.

15. Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari 2020 — 2025-yillar davomida bosqichma-bosqich har bir tuman va shaharda tarix va madaniyat davlat muzeylarining filiallari shaklida o'lkashunoslik muzeylari tashkil etilishi va O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan muzeylar, ularning filial va bo'limlari ro'yxatiga kiritilishini ta'minlasin.

16. O'zbekiston davlat san'at muzeyiga — san'at sohasidagi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga — madaniyat va tarix sohasidagi barcha muzeylar faoliyatini ilmiy-tadqiqot va metodik jihatdan muvofiqlashtirish, ularning ushbu yo'nalishlardagi o'zaro hamkorligini ta'minlash, kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirish vazifasi yuklansin.

Madaniyat vazirligi va Fanlar akademiyasi 2021-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston davlat san'at muzeyi va O'zbekiston tarixi davlat muzeyida muzeyshunoslik, san'atshunoslik, madaniyatshunoslik yo'nalishlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ixtisoslashtirilgan ilmiy kengashlar va ilmiy-metodik kengashlar tashkil etish choralarini ko'rsin.

Madaniyat vazirligi Moliya vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda 2021-yil 1-yanvardan boshlab muzeylarning ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarining bazaviy lavozim maoshlarini oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda yetakchi ijodiy tashkilotlarning "do'stlar klublari"ni tashkil etish bo'yicha ijobiy tajribasini muzeylar sohasiga tatbiq etilishini ta'minlasin.

18. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, "O'zbekkino" milliy agentligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston teatr arboblari uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda keng jamoatchilikning madaniyat va san'atning jamiyatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'rnini hisobga olib, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 15-aprel sanasini "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Madaniyat vazirligi o'n kun muddatda "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at xodimlari kuni"ni belgilash bo'yicha qonun loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5630-son Farmoni 6-bandining "a" kichik bandi [birinchi xatboshisi](#) "davlat mulki hisoblangan moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari bundan mustasno" so'zlari bilan to'ldirilsin.

20. Madaniyat vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

ikki hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasini;

ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

21. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari B.A. Musayev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 26-may,

**2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'atni yanada
rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar****DASTURI**

T/r	Tizimli muammo va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
I. Madaniyat va san'at sohasida qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish					
1.	Madaniyat vazirligi tizimidagi teatrlar, muzeylar, madaniyat markazlari, konsert-tomosha, ta'lim muassasalari va boshqa muassasalarining boshqaruv, badiiy-ijodiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarining namunaviy shtatlarini takomillashtirish.	1. Namunaviy shtatlarni xorijiy davlatlar tajribalari asosida qayta ko'rib chiqish. 2. Namunaviy shtatlarga asosan tegishli muassasalarining shtatlar jadvallarini tasdiqlash. 3. Xodimlarning ko'p yillik ish staji, toifasi, ilmiy darajasini hisobga olgan holda mehnatga haq to'lashning differensial tizimini joriy etish bo'yicha taklif kiritish.	2020-yil dekabr	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Husanov), Moliya vazirligi (Ishmetov)
II. Moddiy va nomoddiy meros hamda muzeylar sohasida					
2.	Muzeylarning daromad manbalarini kengaytirish maqsadida ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, jumladan tovarlar sotish va xizmatlar ko'rsatishning huquqiy asoslarini belgilashga qaratilgan qonun loyihasini ishlab chiqish.	1. Xorijiy tajriba asosida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasini tayyorlash. 2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Loyihani belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish.	2020-yil iyul	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Moliya vazirligi (Ishmetov), Iqtisodiyot taraqqiyot vazirligi (Ortiqov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), manfaatdor vazirlik va idoralar

3.	Hududlardagi davlat muzeylaridagi ekspozitsiyalarni zamon talablariga asosan yangilash, reekspozitsiya qilish ishlarini tashkil etish.	1. Talab doirasid❖ reekspozitsiya qilinadigan va xalqaro standartlar darajasida tashkil etiladigan ekspozitsiya dasturlarini shakllantirish. 2. Dastur loyihasini tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Reekspozitsiya va ekspozitsiya ishlarini tashkil etishda xorijiy yetakchi mutaxassislarni jalb qilish. 4. Tashkil etilgan reekspozitsiya va ekspozitsiyalardan maxsus albomlar, flayerlar, bukletlar, foto, video materiallar tayyorlash.	2020yil avgust	Muzeylarning budjetdan tashqari mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), vazirliklar va idoralar
----	---	---	----------------	---	---

4.	Milliy muzey fondini raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2025-yilga qadar quyidagi tadbirlarni to'liq yakunlashni nazarda tutuvchi Milliy muzey fondini raqamlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish; har bir muzey tomonidan o'z fondida saqlanayotgan muzey eksponatlarining elektron katalogini yaratish; "Milliy muzey fondining davlat katalogi" elektron katalogini yaratish; muzeylarning elektron kataloglari bilan Internet jahon axborot tarmog'i orqali tanishish; Departament, muzeylar, davlat bojxona xizmati organlari va boshqa manfaatdor idoralar o'rtasida madaniy boyliklarni muhofaza qilish bo'yicha o'zaro elektron axborot almashish tizimini yaratish; "virtual muzey", "raqamli muzey" loyihalarini amalga oshirish.	2020-yil sentyabr	Madaniy meros jamg'armasi, muzeylarning budjetdan tashqari mablag'lari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), tasarrufida muzeylar mavjud bo'lgan boshqa tashkilotlar
----	--	---	-------------------	--	---

5.	Toshkent shahrida O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi uchun yangi binolar kompleksini qurish.	Quyidagilarni nazarda tutgan holda Toshkent shahrida O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi uchun yangi binolar kompleksini qurish loyihasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish: binolar kompleksida muzey eksponatlarini zarur darajada saqlash, ta‘mirlash, ilmiy tadqiq etish, ko‘rgazmaga qo‘yiladigan eksponatlar ulushini bir necha barobar oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish; binolar kompleksini Toshkent shahridagi aholi va sayyohlar eng ko‘p tashrif buyuradigan maskanlar toifasiga kiritish; binolar kompleksini qurish ishlarini har yilgi investitsiya dasturlari hisobidan moliyalashtirish.	2020-2021-yillar	—	Toshkent shahar hokimligi (Artikxodjayev), Fanlar akademiyasi (Yuldashev), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov)
6.	Madaniy meros masalalari bo‘yicha YUNESKO bilan hamkorlikda Xalqaro maslahat qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.	1. Xalqaro maslahat qo‘mitasini tashkil etish bo‘yicha muzokaralar olib borish. 2. Xalqaro maslahat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha taklif kiritish.	2020-yil dekabr	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), YUNESKO ishlari bo‘yicha milliy kengash

7.	“Buxoro”, “Samarqand”, “Ichan qal’a”, “Sarmishsoy”, “Shahrisabz”, “Termiz” va “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonalarini hududlarining chegarasini belgilash ishlarini yakunlash.	1. “Buxoro”, “Samarqand”, “Ichan qal’a”, “Sarmishsoy”, “Shahrisabz”, “Termiz” va “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonalariga beriladigan obyektlar yakuniy ro‘yxatini shakllantirish. 2. Ro‘yxatga kiritilgan obyektlarning chegaralarini aniqlash. 3. Muzey-qo‘riqxonalarning chegaralarini belgilash, tegishi hujjatlarni rasmiylashtirish.	2020-yil sentyabr	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), “Davyergeodezkadastr” qo‘mitasi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlari hokimliklari
8.	Toshkent arxitektura-qurilish instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, O‘zbekiston milliy universitetida madaniy meros obyektlarini restavratsiya (konservatsiya) qilish bo‘yicha yo‘nalishlar tashkil etish.	1. Qabul kvotasi bo‘yicha ehtiyojni aniqlash. 2. Davlat ta‘lim standartlari, o‘quv dasturlari va maxsus rejalar ishlab chiqish va tasdiqlash.	2020-2021 o‘quv yilidan boshlab	Oliy ta‘lim muassasalarining o‘z mablag‘lari hisobidan	Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi (Madjidov), Iqtisodiyot taraqqiyot vazirligi (Ortiqov), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Qurilish vazirligi (Zakirov), Badiiy akademiya (Nuridinov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev)
9.	O‘zbekiston madaniy merosini asrash, o‘rganish va ommalashtirish bo‘yicha butunjahon jamiyati faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.	1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil avgust	—	Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi (Abduxalikov), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov)

10.	Aholining keng qatlami, shuningdek, o'quvchi-yoshlar orasida davlat muzeylarida saqlanayotgan milliy moddiy madaniy meros boyliklari, jumladan arxeologik, amaliy san'at, numizmatika, litografik kabi eksponatlarning foto va ko'chma ko'rgazmalari haqida targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	1. Milliy eksponatlar katalogi asosida targ'ibot roliklarini tayyorlash. 2. Ta'lim muassasalari, korxonalar va ishlab chiqarish birlashmalarida, xizmat ko'rsatish markazlarida targ'ibot ishlarini tashkil etish. 3. Davlat muzeylariga jalb etilgan tashrifchilar uchun ekskursiyalar tashkil etish. 4. Tashrifchilarning ekspozitsiyalar bo'yicha fikrlari yuzasidan bevosita va bilvosita so'rovnomalar tashkil etish.	2020-yil sentyabr oyidan boshlab muntazam	O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar doirasida, homiylik xayriyalari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Xalq ta'limi vazirligi, (Shermatov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov)
11.	Madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish va uning hududiga olib kirish tartibini, shu jumladan ushbu sohadagi ruxsat beruvchi hujjatlarni va ularni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish, yakka tartibdagi tadbirkorlarga madaniy boyliklarni realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanish huquqini berish.	1. O'zbekiston Respublikasining "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi Qonuniga va boshqa qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan xorijiy tajriba asosida takliflar tayyorlash. 2. Loyihani manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Loyihani belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish.	2020-yil iyul	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Davlat bojxona qo'mitasi (Azimov), manfaatdor vazirlik va idoralar

12.	Xalqaro Venetsiya arxitektura biyennalesida O'zbekiston milliy pavilonini yaratish.	1. O'zbekiston milliy paviloni konsepsiyasini ishlab chiqish. 2. Vazirlar Mahkamasining farmoyishi loyihasini tayyorlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 3. Milliy pavilonni yaratish va biyennaleda faol ishtirok etish.	2020-yil sentyabr	Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Tashqi ishlar vazirligi (Kamilov)
13.	Madaniyat vazirligi tizimidagi ko'zi ojizlar kutubxonalari faoliyatini zamonaviylashtirish.	1. Mashhur o'zbek va jahon adabiyoti asarlarini audiolizatsiya qilish va ularni Respublika ko'zi ojizlar kutubxonasining internet sayti orqali aholiga taqdim etish. 2. Ko'zi ojizlar kutubxonalari tomonidan masofaviy xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish. 3. Ko'zi ojizlar kutubxonalarining xizmatlarini zamonaviylashtirish va ulardan foydalana olish imkoniyatini kengaytirish jarayoniga Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot resurs markazini keng jalb etish.	2020-2021-yillar davomida	O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratilgan mablag'lar doirasida, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining grantlari, homiylik xayriyalari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Moliya vazirligi (Ishmetov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sadikov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (Saidjonov)

14.	O'zbekiston muzey eksponatlari ishtirokida 2021-2022-yillarda Parij shahridagi Arab dunyosi instituti (Fransiya), Pekin shahridagi Pekin milliy muzeyi (Xitoy) va Samarqand shahrida ShHT davlat rahbarlari sammiti doirasida "Ipak yo'li" ko'rgazmasini tashkil etish va o'tkazish.	1. Hamkorlikdagi ko'rgazma konsepsiyasini ishlab chiqish. 2. Vazirlar Mahkamasining farmoyishi loyihasini tayyorlash va manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishish. 3. Loyihani belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 4. Ko'rgazmani yuqori saviyada o'tkazish.	2020-yil sentyabr Reja asosida	Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Tashqi ishlar vazirligi (Kamilov), Samarqand viloyati hokimligi
-----	--	---	--------------------------------	--	---

III. Teatr, qo'g'irchoq teatri, kino, sirk, shapito va milliy an'anaviy dorbozlik san'ati sohasida

15.	Teatr, sirk, muzey, hayvonot bog'lari va boshqa madaniyat muassasalariga o'quvchi va talabalarni keng jalb qilish.	Barcha turdagi ta'lim muassasalari o'quvchi va talablarini madaniyat muassasalariga muntazam tashriflarini tashkil etish.	Doimiy ravishda	—	Vazirlar Mahkamasi (Musayev), Maktabgacha ta'lim vazirligi (Shin), Xalq ta'limi vazirligi (Shermatov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Madjidov), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov)
-----	--	---	-----------------	---	---

16.	Teatrlar faoliyatida marketing va reklama tizimini rivojlantirish, teatrlarga aholini jalb qilish, qiziqtirish, teatr san'ati targ'ibotini yanada kuchaytirish.	1. Hududlarda maxsus reklama lavhalari va pannolar, bannyerlar o'rnatish uchun maxsus joy ajratish va o'rnatish. 2. OAV vositalarida, xususan tele-radio kanallarda teatr repertuarlari va afishalari yoritish uchun maxsus vaqtlar ajratish. 3. Teatrning budjetdan tashqari qo'shimcha tushumlarini ko'paytirish maqsadida har bir teatrning o'ziga xos logotiplarini yaratish, suvenir do'konlarini tashkil etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. 4. Teatrlarning xarajatlar smetasida marketing va reklama xizmatlari uchun xarajatlarni nazarda tutish, shartnoma asosida reklama ishlarini tashkil etish.	Doimiy ravishda 2020-yil iyun	Madaniyat vazirligi tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida jalb qilinadigan mablag'lar	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, MTRK, (Xodjayev), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov)
-----	--	--	-------------------------------------	--	---

17.	Respublikamizda yangilik sifatida musiqali, drama va qo‘g‘irchoq teatrlari yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro teatr festivalini har ikki yilda bir marta o‘tkazish bo‘yicha takliflar tayyorlash.	1. Festival to‘g‘risida nizom loyihasini ishlab chiqish, unda davlat teatrlari va xorijiy teatrlar bilan ijodiy hamkorliklarni mustahkamlash, aholini jahonning eng namunali sara asarlaridan bahramand etish, teatrlardagi ijodiy xodimlarni sohaning yetuk xorijiy mutaxassislari bilan tajriba almashishini tashkil etishni nazarda tutish. 2. Hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2020-yil avgust	Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Tashqi ishlar vazirligi, (Kamilov), Teatr arboblari uyushmasi (Axmedov)
18.	Ko‘chma sirknlarni (shapito, dorbozlar guruhlar) malakali kadrlar bilan ta‘minlash.	“O‘zbek davlat sirki” davlat muassasasi va ko‘chma sirk (shapito, dorbozlar guruhlar) xodimlarini xorijiy davlatlarning sirk yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitish hamda ularning malakasini oshirish.	Doimiy ravishda	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov)

19.	Teatrlar tomonidan sahnalashtirilgan asarlar mualliflariga to‘lanadigan mualliflik haqi bo‘yicha qarzdorlikni bartaraf etish.	1. Madaniyat vazirligining asoslantirilgan hisob-kitoblariga asosan mazkur qaror kuchga kirguniga qadar teatrlar tomonidan sahnalashtirilgan asarlar mualliflariga to‘lanadigan mualliflik haqi bo‘yicha qarzdorlikning to‘liq bartaraf etish. 2. Amalga oshirilgan ishlar natijasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	2020-yil oxiriga qadar	O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti	Moliya vazirligi (Ishmetov), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov)
IV. Milliy musiqa, raqs va estrada san’ati sohasida					

20.	Konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilarining yagona onlayn portali (keyingi o‘rinlarda — Yagona portal) faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	Yagona portal orqali litsenziyalashni nazarda tutgan holda Konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Quyidagi imkoniyatlarni nazarda tutgan holda Yagona portalni yaratish: konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talabgorlarini Yagona portalda onlayn tarzda, shu jumladan davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ro‘yxatdan o‘tkazish; litsenziya olish uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlar, shu jumladan ijrochining repertuari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, undagi musiqa va qo‘shiqlar talabgor tomonidan Yagona portalga kiritish hamda doimiy ravishda yangilab borish; talabgorlar (litsenziatlar)ning intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarini kafolatlagan holda kiritilgan musiqa va qo‘shiqlarni ko‘chirib olishni istisno qilgan holda ularni eshitish;	2020-yil avgust sinov tariqasida — 2020-yil 1-dekabr to‘liq ishga tushirish — 2021-yil 1-yanvar	Madaniyat vazirligi budgetdan tashqari mablag‘lari, “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi budgetdan tashqari mablag‘lari, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida jalb qilingan mablag‘lar	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), manfaatdor vazirlik va idoralar
-----	--	---	--	--	--

		talabgorlar (litsenziatlar)ning litsenziya talablariga, shu jumladan muayyan reyting guruhiga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini ular tomonidan kiritilgan ma'lumotlar asosida avtomatik tarzda aniqlash; talabgor (litsenziat) tomonidan kiritilgan har bir musiqa va qo'shiq bo'yicha uni eshitib ko'rgan va unga ovoz bergan foydalanuvchilar sonini onlayn hisoblab borish; talabgor (litsenziat)ning ijro mahoratiga baho berishda foydalanuvchilar tomonidan berilgan ovozlarni inobatga olish; talabgor (litsenziat) tomonidan tegishli reyting guruhi uchun belgilangan barcha talablar bajarilgan taqdirda litsenziya Yagona portal tomonidan avtomatik tarzda, maxsus rekvizitlarga ega elektron hujjat shaklida rasmiylashtirish; Yagona portalning alohida sahifasida har bir litsenziatga u tomonidan yil davomida yaratilgan yangi asarlar, ularga foydalanuvchilar tomonidan berilgan ovozlarni, joylarda,			
--	--	---	--	--	--

		xususan, olis hududlarda o'tkazilgan konsert-tomosha dasturlari, davlat tadbirlaridagi ishtiroki, ijodiy ish staji va boshqa mezonlar bo'yicha onlayn tarzda ball hisoblab borish; Madaniyat vazirligi tomonidan konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslar orasidan davlat mukofotlari bilan taqdirlash uchun tavsiya etiladigan nomzodlarni tanlab olishda ularga Yagona portal orqali qo'yilgan ballarni inobatga olish.			
21.	Vatanga sadoqat, osoyishtalik, hayotni, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni targ'ib etuvchi "Yagonasan, muqaddas Vatan!" respublika qo'shiqlar tanlovini zamonaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish.	1. Tanlov Nizomini qayta ishlash. 2. Tanlovni targ'ib etish va unga keng ommani jalb etish bo'yicha OAVlarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda maxsus roliklar targ'ibotini tashkil etish. 3. Tanlovni teleloyiha shaklida o'tkazish.	2020-yil iyun — avgust	Madaniyat vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (Saidjonov), MTRK (Xodjayev)

22.	Intellectual mulk obyektlarining huquqiy himoyasiga doir sud amaliyotini umumlashtirish.	1. Intellectual mulk obyektlarining huquqiy himoyasiga doir ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha sud amaliyoti materiallarini tanqidiy tahlil qilib borish. 2. Sudlar tomonidan intellectual mulk obyektlarining huquqiy himoyasiga doir ishlarni ko‘rib chiqish amaliyoti umumlashmalarini e‘lon qilib borish.	Doimiy ravishda	—	O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi (Kamilov)
-----	--	---	-----------------	---	---

23.	Ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini har yili tasdiqlanadigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining kalendar rejalari asosida o‘tkazishni joriy etish.	2021-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi tartibni belgilovchi Ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining kalendar rejalari shakllantirish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish: kalendar rejalar madaniyat organlari tomonidan boshqa tashkilotlarning takliflari asosida respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar miqyosida ishlab chiqiladi; kalendar rejalar tegishlicha Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining qarorlari bilan tasdiqlanadi va ularning rasmiy saytlarida e‘lon qilinadi; kalendar rejalarda o‘tkaziladigan har bir davlat tadbirining nomi, o‘tkaziladigan sanasi va joyi, davlat tadbirini o‘tkazish bo‘yicha buyurtmachi, moliyalashtirish manbalari, madaniyat	2020-yil avgust	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Moliya vazirligi (Ishmetov), manfaatdor vazirlik va idoralar
-----	---	--	-----------------	---	---

		organlari, boshqa davlat organlari va tashkilotlarining vazifalari ko‘rsatiladi; kalendar rejalarda boshqa davlat tadbirlari bilan bir qatorda olis hududlardagi aholining madaniy hordiq olishini ta’minlashga qaratilgan konsert-tomosha dasturlari ham nazarda tutil❖di, bunda ushbu dasturlarda ishtirok etuvchilarning transport, turar joy va xizmat safarlari bilan bog‘liq xarajatlar tegishli kalendar rejada nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.			
--	--	---	--	--	--

24.	Madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va ommaviy, madaniy, ma'rifiy, tomosha va informatsion dasturlar yoritilishini kengaytirish.	1. Madaniyat va san'at sohasi vazirlik va idoralari hamda davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalari, jumladan telekanallar bilan Media-piar rejasini ishlab chiqish bo'yicha qo'shma hamkorlik memorandumini loyihasini ishlab chiqish. 2. Tadbirlarni tashkil etish va yoritish bo'yicha reja ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Tayyorlangan madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar dasturlarning sifati va mazmuni yuzasidan aholi o'rtasida ijtimoiy tarmoqlar orqali ochiq so'rovlar o'tkazish.	2021-yildan boshlab muntazam	—	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (Saidjonov), EOYAMA (Abduxolliqov), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Yozuvchilar uyushmasi (Sayidov), Badiiy Akademiya (Nuridinov)
V. Madaniyat, istirohat va hayvonot bog'lari hamda madaniyat markazlari sohasida					
25.	Madaniyat markazlari uchun yangi binolar qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash.	1. 2021 — 2024-yillarda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta'mirlanadigan va jihozlanadigan madaniyat markazlarining manzilli ro'yxatini ishlab chiqish. 2. Manzilli ro'yxatni tasdiqlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2020-yil oktyabr	O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturi doirasida markazlashtirilgan manbalar, respublika budjeti mablag'lari, Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi (Ortiqov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari
VI. Ilm-fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish sohasida					

26.	Bolalar musiqa va san'at maktablari va madaniyat markazlarini musiqa cholg'ulari bilan ta'minlash.	1. Maktablarning musiqa cholg'u asboblari bilan ta'minlanganlik darajasini xatlovdan o'tkazish. 2. Musiqa cholg'u asboblari sotib olish bo'yicha buyurtmalarni shakllantirish. 3. Maktablarni musiqa cholg'u asboblari bilan ta'minlash.	2020-yil iyul 2020-yil sentyabr	Davlat budjeti mablag'lari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Moliya vazirligi (Ishmetov)
-----	--	---	--	-------------------------------	---

27.	Aholi, jumladan, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish.	1. Madaniyat va san'atning taniqli vakillari tomonidan o'zbek va jahon klassik adabiyotining eng noyob asarlarini keng targ'ib qilish bo'yicha "Kitobga muhabbat", "Men o'qigan asar", "Men sevgan qahramon" kabi xeshteg, fleshbomlarni tashkil etish. 2. Taniqli madaniyat va san'at vakillarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va kanallarida mahorat darslarini tashkil etish, onlayn muloqotlar orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash. 3. Taniqli madaniyat va san'at vakillarining ijodiy faoliyati bilan bir qatorda, ijtimoiy tarmoqlarda yosh avlodda vatanparvarlik immunitetini mustahkamlashga qaratilgan xeshteglari va onlayn translatsiyalari muhokamasini tashkil etish.	2020-yil iyul oyidan boshlab muntazam	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Yozuvchilar uyushmasi (Sayidov), Badiiy akademiya (Nuridinov), Yoshlar ittifoqi (Sa'dullayev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (Saidjonov), EOYAMA (Abduxolliqov)
-----	--	--	---------------------------------------	---	--

28.	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "ommaviy madaniy tadbirlarni tashkil etish" ta'lim yo'nalishi va ushbu yo'nalish bo'yicha alohida kafedra tashkil etish.	1. Oliy ta'lim uchun davlat buyurtmasini shakllantirishda "ommaviy tadbirlarni tashkil etish" ta'lim yo'nalishini kiritish bo'yicha taklif tayyorlash. 2. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish kiritish.	2021/2022 o'quv yilidan boshlab	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Majidov), Iqtisodiyot taraqqiyot vazirligi (Ortiqov)
29.	Adabiy yo'nalishlar bo'yicha "Yilning eng yaxshi asari" respublika tanlovini o'tkazish.	1. Tanlov nizomini ishlab chiqish. 2. Har bir nominatsiyaga taniqli adiblar nomini berish. 3. Hay'at kengashini shakllantirish. 4. Mukofot maqsadi va mazmun-mohiyati to'g'risida ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlarini olib borish. 5. G'oliblarni taqdirlash marosimini tashkil etish.	2021-yildan boshlab muntazam	"Ijod" va "Ilxom" jamoat fondlari mablag'lari, homiylik xayriyalari	Yozuvchilar uyushmasi (Sayidov), Fanlar akademiyasi (Yo'ldoshev), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi (Xodjimatrov)

30.	Metsenatlar forumini o'tkazish.	1. Forum konsepsiyasini ishlab chiqish. 2. Metsenatlar ro'yxatiga kiritish uchun xorijiy mamlakatlar vakillari nomzodlari bo'yicha takliflarni ishlab chiqish. 3. Qaror loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 4. Tashkiliy qo'mita faoliyatini tashkil qilish. 5. Forumni tashkil etish.	2020-yil oktyabr har yili aprel	Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Tashqi ishlar vazirligi (Kamilov)
-----	---------------------------------	---	---------------------------------	--	---

31.	Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.	1. Madaniyat va san'at sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutgan holda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish: O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti faoliyati samaradorligini oshirish, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti faoliyatini tashkil etish; Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri faoliyatini qo'llab-quvvatlash; "O'zbekiston davlat sirki" davlat muassasasi hududida Respublika Estrada va sirk kolleji uchun yangi zamonaviy bino qurish.	2020-yil 1-iyul	—	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), manfaatdor vazirlik va idoralar
VII. Madaniyat turizmi sohasida					

32.	“Samarkand Half Marathon” xalqaro yarim marafonini o‘tkazish.	1. Ishtirokchilarni xalqaro yarim marafonga jalb qilish va ro‘yxatini shakllantirish. 2. Yarim marafonni har yili o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 3. Yarim marafon doirasida ta’lim va madaniyat tadbirlarini o‘tkazish. 4. Yarim marafon va g‘oliblarni taqdirlash marosimini o‘tkazish.	2020-yil noyabr har yili oktyabr- noyabr	Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va metsenatlik mablag‘lari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Samarqand viloyati hokimligi
33.	Xorijiy davlatlar, shu jumladan Markaziy Osiyo va Kavkaz, MDHga a’zo davlatlar orasida alohida nufuzga ega bo‘lgan, har yili o‘tkaziladigan musiqa festivallari, musiqa tanlovlarining yakuniy konsert dasturlarini O‘zbekistonda o‘tkazish.	1. O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazish taklif etiladigan musiqa tadbirlarini aniqlash. 2. Musiqa tadbirlarining tashkilotchilari bilan muzokaralar o‘tkazish. 3. Musiqa tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazilishini tashkil etish.	2021-yildan boshlab muntazam ravishda	Tashkilotchilarning o‘z mablag‘lari, budjetdan tashqari mablag‘lar	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Tashqi ishlar vazirligi (Kamilov)
34.	Xalqaro kamer va simfonik musiqa festivalini o‘tkazish.	1. Festival o‘tkazish konsepsiyasini ishlab chiqish. 2. Hududlarda, festival o‘tkaziladigan joylarni belgilash. 3. Festival reja jadvalini tasdiqlash va tegishli vazirlik va idoralarga yuborish.	2021-yildan boshlab har ikki yilda bir marta	Tashkilotchilarning o‘z mablag‘lari, homiylar xayriyalari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), O‘zbekiston Kompozitorlar va bustakorlar uyushmasi (R.Abdullayev)

35.	O'zbekiston san'atini xalqaro miqyosda keng targ'ib qilishni tashkil etish hamda ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Jahon san'ati yarmarkasi"ni tashkil etish.	1. Yarmarkani tashkil etish bo'yicha hujjat loyihasini ishlab chiqish. 2. Hujjat loyihasini vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Yarmarkaning targ'ibot dasturlarini amalga oshirish. 4. Yarmarkaga mahalliy va jahonga mashhur xalqaro prodyuserlarni jalb etish choralari ko'rish.	2021-yil kelishuv asosida	Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, homiylik xayriyalari	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Tashqi ishlar vazirligi (Kamilov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (Saidjonov)
-----	--	--	---------------------------	--	---

VIII. Madaniyat vazirligi va uning hududiy bo'linmalari hamda madaniyat va san'at tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash sohasida

36.	Madaniyat vazirligi hududiy boshqarmalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.	1. Bir donadan Isuzu SAZ NP 26 rusumli transport vositalarini ("Avtoklub") xarid qilish. 2. Transport vositalarini maxsus musiqiy texnik uskunalar bilan jihozlash. 3. Transport vositalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari va Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasiga operativ boshqaruv huquqi asosida berish.	2021-yil 1-yanvar	Mahalliy budjet mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Farg'ona, Jizzax, Xorazm, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahar hokimliklari
-----	--	--	-------------------	-----------------------------	--

37.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda ko‘chma sirk (shapito, dorbozlar guruhlari) hamda hayvonot bog‘lari tashkil etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.	1. Ko‘chma sirk (shapito, dorbozlar guruhlari) hamda hayvonot bog‘larini tashkil etish bo‘yicha tashabbuskorlarni aniqlash. 2. Zamonaviy infratuzilma sharoitlariga moslashgan hayvonot bog‘larini tashkil etish uchun joy ajratish. 3. Ko‘chma sirk (shapito, dorbozlar guruhlari) hamda hayvonot bog‘lari uchun zarur moddiy-texnika va maxsus avtotransp^ort vositalari xarid qilish. 4. Ko‘chma sirk (shapito, dorbozlar guruhlari) hamda hayvonot bog‘lari tashkil etish ishlarini moliyalashtirish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti va viloyatlar budjetlaridan ajratiladigan mablag‘larning yetishmaydigan qismini O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan budjet tashkilotlari obyektlarini qo‘riqlash bo‘yicha xizmatlar to‘lovi bilan bog‘liq xarajatlarni maqbullashtirish hisobidan ajratish.	2020-2021-yillar davomida	O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimlari, Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Moliya vazirligi (Ishmetov)
-----	---	--	---------------------------	---	--

38.	Madaniyat vazirligining tashkiliy tuzilmasi takomillashtirilishi munosabati bilan avtotransport vositalarini qayta ro'yxatdan o'tkazish, ko'chmas mulk obyektlari va boshqa mol-mulkka bo'lgan huquqlarni qayta rasmiylashtirish.	1. Qayta tashkil etilayotgan, tugatilayotgan, o'zgartirilayotgan va boshqa tashkilotlar tizimiga o'tkazilayotgan tashkilotlarga biriktirilgan avtotransport vositalarini tegishli yig'imlar va boshqa to'lovlarni undirmagan holda ichki ishlar organlarida qayta ro'yxatdan o'tkazish. 2. Qayta tashkil etilayotgan, tugatilayotgan, o'zgartirilayotgan va boshqa tashkilotlar tizimiga o'tkazilayotgan tashkilotlarga biriktirilgan ko'chmas mulk obyektlariga va boshqa mol-mulkka bo'lgan huquqlarni tegishli yig'imlar va boshqa to'lovlarni undirmagan holda qayta rasmiylashtirish.	2020-yil oxiriga qadar	—	Ichki ishlar vazirligi (Bobojonov), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov) Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi (Abdullayev), Madaniyat vazirligi (Nazarbekov)
39.	Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarni Internet jahon axborot tarmog'iga ulash.	Ixtisoslashtirilgan madaniyat va san'at muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablari, davlat teatrlari, muzeylar va ularning filiallari hamda madaniyat markazlarini Internet jahon axborot tarmog'iga ulash, optik tolali aloqa liniyalari bilan to'liq ta'minlash choralarini ko'rish.	2023-yil oxiriga qadar	O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari, tashkilotlarning o'z mablag'lari, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Madaniyat vazirligi (Nazarbekov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sadikov)

**O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining 2021
— 2025-yillarga mo'ljallangan**

MAQSADLI KO'RSATKICHLARI

T/r	Tizimli vazifalar	Oʻlchov birligi	Yillar kesimida				
			2021	2022	2023	2024	2025
Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va muzeylar sohasida							
1.	Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarida moddiy madaniy merosning koʻchmas mulk obyektlarini restavratsiya qilish uchun xarajatlarni nazarda tutish.	mlrd soʻm	50	75	100	125	150
2.	Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini restavratsiya, konservatsiya qilib borish.	ta	100	150	170	200	230
3.	Muzeylar tomonidan taʼlim muassasalari va yirik tashkilotlarda koʻchma koʻrgazmalar sonini oshirish.	ta	500	530	570	600	650
Teatr va sirk sohasida							
4.	Davlat teatrlari tomonidan namoyish etiladigan spektakllarga tomoshabinlarni jalb etish.	mln. nafar	2,4	2,8	3,2	3,6	4
5.	Davlat teatrlarining xalqaro festival va gastrollarga yuborilishini tashkil etish.	ta	15	20	25	30	40
6.	Joylarda oʻtkaziladigan sirk tomoshalarining sonini oshirish.	ta	397	446	497	551	600
Milliy musiqa, raqs va estrada sanʼati sohasida							
7.	Iqtidorli yoshlarning nufuzli xorijiy tanlovlarda ishtirokini oshirish.	nafar	250	300	400	450	500
8.	Yoʻqolib borayotgan milliy raqs uslub va anʼanalarini tiklash va rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan “ustoz va shogird” milliy raq maktablariga oʻquvchilarni jalb etish.	ta	15	20	25	30	35

9.	O'zbekiston davlat filarmoniyasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan o'tkazilayotgan konsert-dasturlar sonini oshirish.	ta	900	950	1150	1200	1300
Madaniyat va istirohat bog'lari hamda madaniyat markazlari sohasida							
10.	Madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish.	mingta	4,7	5	5,25	5,5	5,8
11.	Madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi to'garaklarga yoshlarni jalb etish.	foizda	7	10	15	17	20
12.	Davlat-xususiy sheriklik asosida madaniyat markazlari va istirohat bog'lari faoliyatini samarali tashkil etish.	ta	35	60	90	110	150
Ilm-fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish sohasida							
13.	Bolalar musiqa va san'at maktablarini oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash.	foizda	45	50	55	60	65
14.	Tizimdagi ta'lim muassasalarining xorijiy turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish.	ta	70	80	90	95	100
15.	Madaniyat va san'at tizimidagi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, xususan ilmiy darajali kadrlar sonini ko'paytirish.	nafar	7	10	10	10	12
Madaniyat turizmi sohasida							
16.	Mamlakatimizga xorijiy sayyohlar oqimini yanada ko'paytirish maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida mavsumiy ko'ngilochar madaniy tadbirlar tashkil etish.	ta	10	20	30	40	55
17.	Xorijiy davlatlarda O'zbekiston madaniyati va san'atini targ'ib qilish va mamlakatimiz to'g'risida ijobiy tasavvurni shakllantirishga yo'naltirilgan madaniy tadbirlar (madaniyat kunlari, ko'rgazmalar, konsert dasturlari) sonini ko'paytirish.	ta	15	20	25	30	40

18.	O'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar, konsert dasturlari va namoyish etiladigan spektakllar uchun maxsus reklama shitlarini o'rnatish.	ta	110	190	270	380	500
-----	--	-----------	-----	-----	-----	-----	-----

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.05.2020-y., 06/20/6000/0673-son)